

TARJIMADA SOXTA DO‘STLAR (FALSE FRIENDS) MUAMMOSI VA ULARNING TARJIMA JARAYONIGA TA’SIRI

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti
universiteti talabasi **Isomiddinova Zarina**

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjima jarayonida uchraydigan soxta do‘stlar (false friends) hodisasining mohiyati, ularning kelib chiqish sabablari va tarjimada yuzaga keltiradigan semantik xatoliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasida uchraydigan soxta do‘stlar misolida ma’no farqlari ko‘rsatilib, ularni to‘g‘ri tarjima qilishning samarali usullari bayon etiladi. Maqolada tilshunoslik va tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ushbu hodisaning tarjimon faoliyatiga ta’siri yoritilgan bo‘lib, kontekstni to‘g‘ri anglash, madaniy tafovutlarni hisobga olish va lingvistik kompetensiyani oshirish zarurligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: tarjima, soxta do‘stlar, semantik xato, ma’no farqi, kontekst, tarjimashunoslik, leksik tahlil, madaniy tafovut.

Abstract: This article analyzes the nature of the phenomenon of false friends encountered in the translation process, their causes of origin, and the semantic errors they generate in translation. It also illustrates differences in meaning through examples of false friends occurring between the English and Uzbek languages and presents effective methods for translating them accurately. From the perspectives of linguistics and translation studies, the paper highlights the impact of this phenomenon on translators’ professional activity and emphasizes the importance of correctly understanding context, taking cultural differences into account, and enhancing linguistic competence.

Keywords: translation, false friends, semantic error, difference in meaning, context, translation studies, lexical analysis, cultural differences.

Kirish: Tarjima — ikki til o‘rtasidagi ma’no, tuzilma va madaniy farqlarni uyg‘unlashtirish jarayonidir. Bu jarayon davomida tarjimon ko‘plab leksik, grammatik va

semantik muammolarga duch keladi. Shulardan biri — “soxta do‘stlar” (false friends) hodisasidir. Soxta do‘stlar deb shaklan bir-biriga o‘xshash, ammo ma‘nosi mutlaqo farqli bo‘lgan so‘zlarga aytiladi. Ular ko‘pincha tarjimonni chalg‘itib, ma‘no xatoliklariga sabab bo‘ladi. Bu hodisa ayniqsa ingliz, rus va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimalarda tez-tez uchraydi.

Soxta do‘stlar hodisasi tilning tarixiy taraqqiyoti, leksik o‘zlashmalar va fonetik o‘xshashlik natijasida vujudga keladi. Masalan, ingliz tilidagi “actual” so‘zi “haqiqiy” degan ma‘noni anglatadi, biroq ko‘plab tarjimonlar uni o‘zbek tilidagi “aktual” so‘zi bilan adashtirib, “dolzarb” deb tarjima qiladilar. Bu esa semantik xatoga olib keladi. Semantik xato o‘zi nima? Semantik xato — so‘z yoki iboraning ma‘nosi noto‘g‘ri tushunilishi yoki noto‘g‘ri yetkazilishi natijasida yuzaga keladigan xato. Ya‘ni muammo grammatikadan emas, balki ma‘noning noto‘g‘ri bo‘lishidan kelib chiqadi.

Tarjima va tilshunoslikda: so‘zning asl ma‘nosi noto‘g‘ri tanlansa, matnning mazmuni o‘zgaradi. (Masalan: ingl. fabric — “mato”, lekin uni “fabrika” deb tarjima qilish.) (Ingliz tilida “sympathetic” so‘zi “hamdard” degan ma‘noni bildirsa, o‘zbek tiliga “simpatik” deb tarjima qilish).

Nutqda yoki yozuvda: noto‘g‘ri yoki mos kelmas ma‘no tanlanganida, gap yo mantiqiy yoki mazmuniy xato bo‘ladi.

Dasturlashda (texnik ma‘noda): kod sintaksisi to‘g‘ri bo‘lsa-da, uning bajarilishi kutilgan natijani bermasa — bu ham semantik xato hisoblanadi (masalan, noto‘g‘ri algoritm ishlatilishi). Tarjima misoli: “Conductor is here” “Konduktor shu yerda” deb tarjima qilsak, semantik xato bo‘ladi. To‘g‘ri tarjima esa “Dirijor shu yerda.” Yana bir misol — inglizcha “magazine” so‘zi “jurnal” degan ma‘noni bildiradi lekin ko‘pchilik uni “magazin” (do‘kon) deb noto‘g‘ri tarjima qiladi.

Bunday xatoliklarning oldini olish uchun tarjimon so‘zlarning etimologiyasi (so‘zlarning kelib chiqishi, tarixiy rivoji), semantik maydoni (ma‘nosi jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan so‘zlar) va kontekstual ma‘nosini (bitta so‘z turli kontekstda turli ma‘noni anglatishi) chuqur o‘rganishi zarur. Tarjima jarayonida soxta do‘stlar nafaqat til bilimi, balki madaniy tushunchalar farqini ham aks ettiradi. Shuning uchun tarjimon kontekstni to‘liq anglab, matnning umumiy mazmunini saqlagan holda tarjima qilishi lozim.

Shuningdek, ikki tilli lugʻatlar, elektron tarjima dasturlari va korpus texnologiyalaridan foydalanish, leksik xatoliklarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Tarjimada soxta doʻstlar hodisasi — tarjimon uchun jiddiy sinovdir. Ular matnning semantik aniqligiga, uslubiy uygʻunligiga va madaniy toʻgʻriligiga taʼsir koʻrsatadi. Shu bois, har bir tarjimon soʻzlarning tashqi shakliga emas, balki ichki mazmuniga, kontekstdagi funksiyasiga eʼtibor qaratishi kerak. Tilni chuqur bilish, doimiy amaliy mashq va lingvokulturologik yondashuv (lingvokulturologik yondashuv til birliklarini (soʻz, ibora, frazeologizm, matn) madaniy maʼno va milliy xususiyatlar bilan bogʻliq holda tahlil qilishga asoslanadi)soxta doʻstlar bilan bogʻliq xatoliklarni kamaytirishning eng samarali yoʻlidir

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Karimov, B. (2018). Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Gʻafurova, M. (2020). Ingliz tili leksikologiyasi va semantik tahlil asoslari. Toshkent: Oʻzbekiston davlat jahon tillari universiteti nashriyoti.
3. Vinay, J.P. & Darbelnet, J. (1995). Comparative Stylistics of French and English: A Methodology for Translation. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
4. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. London: Prentice Hall.
5. Niyozova, D. (2021). “Soxta doʻstlar hodisasi va tarjimada semantik xatoliklarning oldini olish yoʻllari.” Filologiya masalalari, №3, 45–49-betlar.